

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**



TA'LIM DASTURINI
MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN O'TKAZISH BO'YICHA

YAKUNIY HISOBOT



CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
Davlat oliy ta'lim tashkiloti

61010200 – Sport faoliyati: badiiy gimnastika
Bakalavriat



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

61010200 – Sport faoliyati: badiiy gimnastika

**TA'LIM DASTURINI MAXSUS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
O'TKAZISH BO'YICHA YAKUNIY HISOBOT**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

(Ekspert komissiyasi xulosasi asosida)

EKSPERT KOMISSIYASI TARKIBI



Rais: ABDULLAYEV MEHRIDDIN JUNAYDULLOYEVICH

Buxoro davlat universiteti

fan doktori (DSc)



A'zo: MAZUKI MOHD YASIM

Universiti Pendidikan Sultan Idris

fan doktori (DSc)

1. UMUMIY MA'LUMOTLAR

Ariza raqami	MAO260093
Xulosa raqami	898
Xulosa sanasi	03.06.2026
Ta'lim tashkilotining to'liq nomi	"CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI" DAVLAT MUASSASASI
Tashkilot manzili, litsenziya / identifikatsiya ma'lumotlari	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy. Guvohnoma: MAS № 0000139, 19.06.2026.
Baholangan ta'lim dasturi nomi	Sport faoliyati: badiiy gimnastika
Yo'nalish / mutaxassislik kodi	61010200
Akkreditatsiya usuli	masofaviy / joyiga chiqib

2. HUQUQIY ASOSLAR

Xulosa tayyorlanishiga asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjat:

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom.

Maxsus davlat akkreditatsiyasi:

O'rta maxsus, kasbiy, oliy ta'limni va oliy ta'limdan keyingi ta'limni, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta'lim tashkilotlarida ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv jarayoni boshlanishidan oldin amalga oshiriladigan jarayon.

3. TA'LIM DASTURINING UMUMIY TAVSIFI

1. Ta'lim tashkilotining litsenziya/guvohnomasi: <i>License/Certificate of Educational Institution:</i>	MAS № 0000139, 19.06.2026
2. Ta'lim tashkilotining turi: <i>Type of Educational Institution:</i>	Davlat oliy ta'lim tashkiloti
3. Ta'lim dasturi kodi va nomi: <i>Code and Name of Study Programme:</i>	61010200 – Sport faoliyati: badiiy gimnastika
4. Ta'lim dasturining ingliz tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in English:</i>	61010200 – Sports Activity: Rhythmic Gymnastics
5. Ta'lim dasturining rus tilida nomlanishi: <i>Name of Study Programme in Russian:</i>	61010200 – Спортивная деятельность: художественная гимнастика
6. Hamkorlikda amalga oshirilishi: <i>Offered in Cooperation with:</i>	—
7. Ta'lim tili: <i>Medium of Instruction:</i>	o'zbek
8. Ta'lim shakli: <i>Mode of Study:</i>	kunduzgi, kechki
9. Ta'lim dasturi hajmi: <i>Study Programme Credits:</i>	240 kredit
10. Ta'lim dasturi davomiyligi: <i>Duration of Study Programme:</i>	4 yil
11. Milliy malaka ramkasidagi darajasi: <i>Level in National Qualifications Framework:</i>	6-daraja
12. Kvalifikatsiya(lar) nomi: <i>Qualification Title:</i>	Trener
13. Qo'shimcha beriladigan kvalifikatsiyalar: <i>Additional Qualifications Awarded:</i>	Jismoniy tarbiya o'qituvchisi
14. Ta'lim dasturi yakunida beriladigan hujjat turi: <i>Type of Document Issued Upon Completion:</i>	Davlat namunasidagi diplom
15. Ta'lim oluvchilarning me'yoriy miqdori (to'liq davr): <i>Maximum Number of Students (full period):</i>	100 nafar
16. Ta'lim dasturini o'qitish manzili: <i>Address Where the Study Programme is Delivered:</i>	Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, A.Temur ko'chasi, 104-uy

4. BAHOLASH YO'NALISHLARI VA MEZONLAR BO'YICHA NATIJALAR

Har bir yo'nalish bo'yicha baho (muvofoq / muvofoq emas) va har bir mezon bo'yicha baho (muvofoq / qisman muvofoq / muvofoq emas) deb baholanadi.

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
1.	Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash	Muvofiq
1.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish bo'yicha tarkibiy tuzilma va uning samarali ishlash mexanizmlarining mavjudligi;*</i>	Muvofiq
1.2.	<i>ta'lim dasturini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash bo'yicha 5 yillik istiqbolli rejaning mavjudligi;</i>	Muvofiq
1.3.	<i>ta'lim dasturi doirasida sifatni ichki ta'minlash mexanizmining mavjudligi hamda bu jarayonlarda manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangani;</i>	Muvofiq
1.4.	<i>mehnat bozori va ta'lim ehtiyojlari hamda ilmiy-tadqiqotning so'nggi tendensiyalarini aniqlash bo'yicha monitoring tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
2.	Ta'lim dasturlari	Muvofiq
2.1.	<i>manfaatdor tomonlar ishtirokida ta'lim dasturining belgilangan tartibda ishlab chiqilgani. Bunda ta'lim dasturining maqsadi, natijalarining belgilangani, mehnat bozori, davlat ta'lim standarti va milliy malakalar ramkasi talablariga muvofiqligi;*</i>	Muvofiq
2.2.	<i>ta'lim dasturining milliy ta'lim tizimidagi ustuvor yo'nalishlar va xalqaro andozalar asosida ishlab chiqilgani;</i>	Muvofiq
2.3.	<i>ta'lim dasturining davomiyligi, fanlarning uzviyligi va uzluksizligi ta'minlangani;</i>	Muvofiq
3.	O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash	Muvofiq
3.1.	<i>ishchi o'quv reja va dasturlarining belgilangan talablarga muvofiq ishlab chiqilgani;*</i>	Muvofiq
3.2.	<i>o'quv jarayonining ta'lim dasturida belgilangan o'quv natijalariga erishishga yo'naltirilgani;*</i>	Muvofiq
3.3.	<i>o'quv jarayonining doimiy baholab borilishi va takomillashtirishga qaratilgani;</i>	Muvofiq
3.5.	<i>ta'lim dasturi doirasida talabalar bilimining shaffof va xolis baholanishi, baholash jarayonlarining o'quv natijalariga muvofiqligi;</i>	Muvofiq
3.6.	<i>talabalarning baholash natijalari bo'yicha fikr-mulohazalarini olish imkoniyati mavjudligi;</i>	Muvofiq
3.7.	<i>ta'lim dasturida akademik halollik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

№	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
4.	Talabalar faoliyati	Muvofiq
4.1.	<i>ta'lim dasturi bo'yicha qabul talablari aniq belgilangani, o'qishga qabul qilish shaffof tarzda yo'lga qo'yilgani;</i>	Muvofiq
4.2.	<i>qabul parametrlarining ta'lim tashkilotining resurslari va imkoniyatlariga mos kelishi;*</i>	Muvofiq
4.3.	<i>talabalarining o'qishini ko'chirish, kursdan-kursga o'tkazish (qoldirish), o'qishdan chetlashtirish va o'qishini qayta tiklash tartibining belgilangani;*</i>	Muvofiq
4.4.	<i>talabalarni qo'llab-quvvatlash va ularga maslahat berish mexanizmlarining mavjudligi;</i>	Muvofiq
5.	Inson resurslari	Muvofiq
5.1.	<i>ta'lim dasturi uchun belgilangan me'yorlarga muvofiq pedagog kadrlar, shuningdek, boshqaruv, texnik, xizmat ko'rsatuvchi va o'quv-yordamchi xodimlar mavjudligi hamda ularning sifat tarkibi, malakasi va mutaxassisligi belgilangan talablarga mosligi;*</i>	Muvofiq
5.3.	<i>yangi ta'lim dasturlari bo'yicha o'quv rejadagi fanlarga mos (tegishli) kasbiy, pedagogik va ilmiy kompetensiyalarga ega pedagog kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha aniq rejaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq
5.4.	<i>kadrlarning kasbiy rivojlanishi va malaka oshirishiga sharoit yaratilgani, moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimining mavjudligi;</i>	Muvofiq
6.	Moddiy-texnik ta'minot	Muvofiq
6.1.	<i>ta'lim dasturini amalga oshirish uchun amaliy, laboratoriya mashg'ulotlari va kurs ishi (loyiha)ni bajarish uchun zarur asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallari va boshqalarning mavjudligi hamda metodik qo'llanma (ko'rsatma)lar bilan ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.2.	<i>fanlar kesimida o'quv va o'quv-metodik adabiyotlar, elektron ta'lim resurslari bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani;*</i>	Muvofiq
6.3.	<i>o'quv va laboratoriya xonalari hamda ustaxona (poligon)larning talabalar sonidan kelib chiqib, ta'lim dasturlariga mos jihozlar va axborot-kommunikatsiya vositalari bilan ta'minlangani hamda xavfsizlik qoidalariga rioya qilingani;*</i>	Muvofiq
6.4.	<i>inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani;</i>	Muvofiq
6.5.	<i>axborot-resurs markazining (kutubxonaning) ta'lim dasturlariga mos o'quv adabiyotlari, kompyuterlar bilan ta'minlangani, o'quv zali va elektron kutubxonaning mavjudligi;*</i>	Muvofiq

No	Baholash yo'nalish (bob) va mezonlari	Muvofiqligi
6.6.	<i>raqamli ta'lim muhiti yaratilgani (LMS, wi-fi zonalari, onlayn kurslar, vebinarlar va masofaviy ta'lim imkoniyatlari);</i>	Muvofiq
6.7.	<i>ta'lim dasturi xususiyatidan kelib chiqib, maxsus xona yoki bino va inshootlarining (sport zali, stadion, musiqa xonasi va boshqalarning) mavjudligi.</i>	Muvofiq

5. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA XULOSALAR

1-bob. Tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash yo'nalishi

1-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, 61010200 – "Sport faoliyati: badiiy gimnastika" bakalavriat ta'lim yo'nalishini amalga oshirish uchun mas'ul tarkibiy tuzilma sifatida Chirchiq davlat pedagogika universitetining Jismoniy madaniyat fakulteti hamda uning tarkibidagi "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedra belgilangan bo'lib, uning vakolatlari, vazifalari va funksiyalari universitet nizomi asosida aniq belgilangan. Dasturga mas'ul kafedra faoliyati amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan bo'lib, ta'lim dasturini amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-boshqaruv shart-sharoitlari hamda ichki sifatni ta'minlash mexanizmlari shakllantirilgan. Istiqbolli rivojlanish rejasi strategik maqsadlar, ustuvor yo'nalishlar, mas'ul ijrochilar va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lib, u universitetning umumiy rivojlanish strategiyasi bilan uyg'unlashtirilgan. Ichki sifatni ta'minlash tizimida monitoring, baholash hamda manfaatdor tomonlar ishtirokini ta'minlash mexanizmlari joriy etilgan. Mazkur tashkiliy-boshqaruv modeli badiiy gimnastika yo'nalishi bo'yicha malakali murabbiy va pedagog kadrlarni tayyorlash uchun ishonchli institutsional asos yaratadi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan tashkiliy-boshqaruv va sifatni ta'minlash mezonlari muvofiq deb baholanadi.

2-bob. Ta'lim dasturlari yo'nalishi

2-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida "Sport faoliyati: badiiy gimnastika" ta'lim yo'nalishini ishlab chiqish va tasdiqlash jarayoni amaldagi Davlat ta'lim standartlari, Milliy malakalar ramkasi hamda oliy ta'lim sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida tizimli ravishda tashkil etilgani aniqlanadi. Ta'lim dasturining maqsadlari, kutilayotgan o'quv natijalari va kompetensiyalari o'zaro uzviy

bog'langan hamda oliy ta'lim muassasasining akademik profili bilan muvofiqlashtirilgan. Dasturda kasbiy faoliyat, ilmiy-tadqiqot va pedagogik kompetensiyalar kompleks tarzda qamrab olingan bo'lib, bitiruvchilarga "Trener" kvalifikatsiyasi berilishi nazarda tutilgan. Badiiy gimnastika yo'nalishi uchun nazariy bilimlarni amaliy va metodik tayyorgarlik bilan uyg'unlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi va mazkur tamoyil ta'lim dasturida izchil amalga oshirilgan. Fanlarning fundamental, umumkasbiy va ixtisoslik bloklari o'rtasidagi mutanosiblik hamda uzviylik talabalarining kasbiy-metodik kompetensiyalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish imkonini ta'minlaydi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi mazmuni bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

3-bob. O'quv jarayonini tashkil etish va o'quv natijalarini baholash yo'nalishi

3-bob bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijasida ta'lim yo'nalishining o'quv rejalari va fan dasturlari Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan malaka talablari asosida ishlab chiqilgani aniqlanadi. Ta'lim jarayonini rejalashtirish, o'quv mashg'ulotlarini tashkil etish, talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini baholash hamda o'quv natijalarini monitoring qilish bo'yicha zarur tashkiliy va uslubiy asoslar shakllantirilgan. O'quv jarayoni Davlat ta'lim standartlari hamda ichki sifatni ta'minlash talablariga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, fanlarning maqsadlari, o'quv natijalari va baholash mezonlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlik ta'minlangan. Badiiy gimnastika yo'nalishi uchun amaliy-metodik komponent, jumladan mashg'ulotlarni tashkil etish, murabbiylik amaliyoti va sport pedagogikasi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki kasbiy kompetensiyalar bevosita amaliy sport faoliyati jarayonida shakllanadi. Baholash tizimining shaffofligi hamda akademik halollikni ta'minlash mexanizmlarining mavjudligi ijobiy baholanadi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan o'quv jarayoni va baholash tizimi muvofiq deb baholanadi.

4-bob. Talabalar faoliyati yo'nalishi

4-bob bo'yicha o'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, universitetda talabalarni o'qishga qabul qilish, o'qishni ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibini belgilovchi nizom O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi 578-son qarori talablari asosida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Talabalar uchun yaratilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi shart-sharoitlar kompleks tahlil natijalariga ko'ra ijobiy baholanadi. Qabul mezonlari va talablari aniq

belgilangan hamda abituriyentlarga ochiq tarzda yetkazilishi ta'minlangan. Qabul parametrlari universitetning mavjud infratuzilmasi va imkoniyatlari bilan muvofiqlashtirilgan bo'lib, bu talabalar soni va resurslar o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlaydi. Talabalar harakatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar hamda talabalarni akademik, ijtimoiy va sport faoliyati yo'nalishlarida qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining mavjudligi talabaning ta'lim traektoriyasini himoya qiladi. O'tkazilgan baholash natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan talabalar faoliyati yo'nalishi bo'yicha barcha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

5-bob. Inson resurslari yo'nalishi

5-bob bo'yicha o'tkazilgan ekspert tahlili natijasida "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedrasining kadrlar salohiyati hamda professor-o'qituvchilar tarkibi ilmiy-uslubiy jihatdan asoslangan, barqaror va ta'lim dasturini to'liq amalga oshirish imkonini beruvchi tizim sifatida baholanadi. Kafedrada faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik salohiyati, kasbiy malakasi hamda ta'lim jarayonini sifatli tashkil etish imkoniyatlari belgilangan talablarga muvofiq. Badiiy gimnastika yo'nalishida professor-o'qituvchilarning nazariy bilimlar bilan bir qatorda amaliy sport va murabbiylik tajribasiga ega bo'lishi ta'lim sifatini belgilovchi muhim omil hisoblanadi. Shu bois kadrlar tarkibining mutaxassislik profiliga mosligi ijobiy baholanadi. Kadrlar tarkibini rejalashtirish, malaka oshirish va ilmiy salohiyatni rivojlantirish mexanizmlarining mavjudligi kadrlar zaxirasining barqarorligini ta'minlaydi. Professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish tizimi ularning kasbiy faolligi va professional rivojlanishini qo'llab-quvvatlaydi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan inson resurslari yo'nalishi bo'yicha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6-bob. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

6-bob bo'yicha ta'lim dasturida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish uchun zarur jihozlar, inventarlar va texnik vositalar bilan ta'minlanganlik holati, sport inshootlari hamda o'quv-amaliy bazalar tahlili natijasida ushbu resurslar tizimi ta'lim sifatini ta'minlashga xizmat qiluvchi muhim infratuzilma komponenti sifatida baholanadi. Badiiy gimnastika yo'nalishi uchun maxsus sport zallari, mashg'ulot maydonlari va sport inventarlarining mavjudligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki amaliy-metodik kompetensiyalar aynan shunday moddiy-texnik baza negizida shakllanadi. O'quv xonalari, axborot-resurs markazi, elektron ta'lim resurslari va raqamli ta'lim muhitining mavjudligi o'quv jarayonini axborot va texnologik jihatdan samarali

qo'llab-quvvatlaydi. O'quv hamda sport inshootlarining talabalar kontingentiga mosligi ta'minlangan. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ekspert komissiyasi tomonidan moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi bo'yicha mezonlar muvofiq deb baholanadi.

6. BAHOLASH YO'NALISHLARI (BOB) BO'YICHA ANIQLANGAN KAMCHILIKLAR VA NOMUVOFIQLIKLAR

Jiddiy kamchiliklar (akkreditatsiyaga to'sqinlik qiluvchi):

Ta'lim dasturini yo'lga qo'yish uchun to'sqinlik qiladigan jiddiy kamchiliklar aniqlanmadi

Bartaraf etilishi lozim bo'lgan juz'iy kamchiliklar:

- ✓ Ayrim indikatorlar bo'yicha dalillovchi materiallar bazasini kengaytirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish va yosh kadrlar zaxirasini shakllantirish bo'yicha ishlarni izchil davom ettirish maqsadga muvofiq.
- ✓ Zamonaviy sport-metodik o'quv resurslari va xalqaro tajribani o'quv jarayoniga to'liqroq tatbiq etish tavsiya etiladi.

7. TA'LIM DASTURINI SIFATLI TASHKIL ETISH BO'YICHA TAVSIYALAR

- ✓ Sport inventari, maxsus jihozlar va mashg'ulot bazalarini belgilangan me'yorlarga muvofiq mustahkamlash.
- ✓ Maqsadli doktorantura orqali professor-o'qituvchilar ilmiy salohiyatini oshirish.
- ✓ Sport tashkilotlari va klublar bilan amaliyot hamkorligini kengaytirib, hujjatlashtirish.
- ✓ Zamonaviy sport-metodik va raqamli o'quv resurslari bazasini yangilab borish.


8. TA'LIM DASTURI BO'YICHA YAKUNIY XULOSA

Baholash natijalariga ko'ra, "Chirchiq davlat pedagogika universiteti" davlat muassasasida 61010200 – "Sport faoliyati: badiiy gimnastika" bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha taqdim etilgan hujjatlar, o'quv-uslubiy materiallar, tashkiliy-boshqaruv mexanizmlari, kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnik baza kompleks tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dasturni amalga oshirish uchun zarur institutsional asoslar (Jismoniy madaniyat fakulteti va "Sport o'yinlari va uni o'qitish metodikasi" kafedrası), malaka talablari asosida ishlab chiqilgan o'quv dasturi, barqaror kadrlar tarkibi hamda sport inshootlari bilan ta'minlangan moddiy-texnik baza shakllantirilgan. Barcha yo'nalishlar belgilangan mezonlarga muvofiq deb topildi. Aniqlangan ayrim jihatlar dasturni amalga oshirishga to'sqinlik qilmaydigan,

asosan takomillashtirishga qaratilgan tavsiyaviy xarakterga ega. Umuman olganda, ta'lim dasturi belgilangan akkreditatsiya mezonlariga mos keladi. Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim dasturi MUVOFIQ deb baholandi.

9. TA'LIM DASTURI BO'YICHA AKKREDITATSIYA KOMISSIYASI QARORI

Akkreditatsiya komissiyasi qarori sanasi:	16.06.2026
Akkreditatsiya komissiyasi bayon soni:	3-son
Yakuniy qaror:	AKKREDITATSIYADAN O'TDI



+998 55 505 30 30



info@nqaee.uz
www.nqaee.uz



@nqaeeuz



@nqaeeuzbot

